

## YAPON TILIDAGI 「は」 VA 「へ」 KELISHIK QO‘SHIMCHALARINING KONTEKSTDAGI MA‘NOLARI TAHLILI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653819>

**P.T.Najmiyeva**

Yapon tili o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Yapon tilidagi kichik grammatik birliklari hisoblangan kelishik qo‘shimchalarining kontekstdagi ma‘nolari va ularning roli haqida ma‘lumotlar keltirilgan. O‘xshash ma‘noga ega kelishik ko‘rsatkichlar nyuanslari kontekstlarda ko‘rsatib o‘tilgan. So‘zlarning semantik ma‘nolarini bera oladigan kontekst tuzilishida grammatik qo‘shimchalar roli alohida ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Yapon tilidagi kelishik ko‘rsatkichlari, 「は」 va 「へ」 kelishik ko‘rsatkichlarining nyuanslari, kontekstdagi va ma‘no turlanishi.*

### АННОТАЦИЯ

*В этой статье представлена информация о контекстуальном значении и роли суффиксов, которые являются небольшими грамматическими единицами в японском языке. Нюансы подобных связных показателей отражаются в контекстах. Показано, что роль грамматических аффиксов в контекстуальной структуре слов, способных передавать семантические значения, уникальна.*

**Ключевые слова:** *суффиксы японских глаголов, оттенки союзов 「は」 и 「へ」, варианты контекста и значения.*

### ABSTRACT

*This article provides information on the contextual meaning and role of suffixes, which are small grammatical units in Japanese. The nuances of such connected indicators are reflected in the contexts. It is shown that the role of grammatical affixes in the contextual structure of words that can convey semantic meanings is unique.*

**Key words:** *suffixes of Japanese verbs, shades of 「は」 and 「へ」, context and meaning.*

## KIRISH

Jamiyat hayotida til insonlar o‘rtasida aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Til shunday axborot signallari tizimiki, u orqali biz tafakkurimizda o‘ylagan fikrlarimizni bayon qilishimiz, muloqotga kirishishimiz mumkin.

Tilimizdagi so‘zlar alohida o‘zi tor ma‘noga ega. Lekin so‘zlar matnda tizilsa yoki muloqot jarayonida kuzatilsa, ularning asl rang-barang ma‘nolari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Quyida keltirilgan so‘zlar ma‘nolarini alohida va kontekstda ko‘rib chiqamiz.

お父さん - ota, お友達 - do‘st, いくつ - nechta, necha yosh, 歳 - yosh, こっち - bu tomon (oddiy og‘zaki nutqda), 大きい katta, 池田 (いけだ) - Ikeda (familiya), 雄太 (ゆうた) - Yuuta (ism), サントス - Santosu (ism), 挨拶する - salomlashmoq, こんにちは - Xayrli kun, 大きい - katta (hajmga nisbatan)<sup>1</sup>

Yuqorida mazmunlari lug‘at tarzida keltirilgan so‘zlarning muloqotdagi ma‘no rang barangligini dialog matnida ko‘rib chiqamiz.

池田: あ、雄太 (ゆうた)、こっちにおいて。お父さんのお友達のサントスさんだよ。ご挨拶しなさい。

Ikeda: Hoy Yuuta, **bu yoqqa** kel. Bu kishi **dadangni** o‘rtog‘i Janob Santosu bo‘ladi. **Qani salomlashginchi.**

雄太: こんにちは。Xayrli kun.

サントス: こんにちは。雄太くんいくつ? **Salom.** Yuuta **necha yoshdasan?**

雄太: 6歳。6 yoshda

サントス: そう。もうお兄ちゃんだね。6歳にしては大きいね。Shundaymi. Allaqachon aka bo‘lib qolibsana-u. 6yoshdan kattaroq ko‘rinasan lekin.

Yuqorida keltirilgan muloqot matnidan so‘zlar va ularning kontestdagi ma‘nolari rang-barangligini oddiy ko‘z bilan ham ko‘rib tushunib olishimiz mumkin. Yapon tilini boshlang‘ich (初級レベル) kurs va o‘rta (中級レベル) darajadagi kurs o‘quvchilariga o‘rgatish jarayonida xuddi shu tarzidagi semantiklikni nafaqat so‘zlarda balkim yapon tili kelishik ko‘rsatkichlarida ham uchramiz. So‘zlarning semantik ma‘nolarini bera oladigan kontekst tuzilishida grammatik qo‘shimchalar roli alohida hisoblanadi. Aynan kelishik ko‘rsatkichlarining o‘rni ham muloqot jarayonidagi so‘zlar ma‘nolarini aniq ko‘rsatib beruvchi omil hisoblanadi. Yuqorida oddiy so‘zlar va aynan shu so‘zlarning muloqot jarayonidagi ma‘nolari ko‘rsatib

<sup>1</sup> MINNA NO NIHONGO ChuukyuuII. スリーエーネットワーク2020年東京

berishga harakat qilindi. Endi esa kichik bo‘gin hisoblanmish kelishik ko‘rsatkichlari qo‘shimchalarning ham semantik xusiyatlari va nyuanlarini oddiy tushunarli tildagi tahlilini ko‘ramiz.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yapon tilidagi kelishik ko‘rsatkichlarining quyidagi jadvalda asosiy vazifalari ko‘rsatilgan.

Kelishiklarning nomlanishi	Kelishik qo‘shimchalari	Kelishik qo‘shimchalarining asosiy vazifasi ko‘rsatilgan kontekst (gaplardagi ma‘nosi)
Bosh kelishik	「は」格	田中さんは先生です。Janob Tanaka □ustoz
Bosh rematik kelishik	「が」格	田中さんが私の先生です。Janob Tanaka □ mening ustozim.
Qaratqich kelishigi	「の」格	田中先生の本はどこですか。Tanaka senseining kitobi qayerda?
Jo‘nalish kelishigi	「に」格	田中さんは先生に手紙を送りました。Janob Tanaka ustozga xat yubordi.
Tushum kelishigi	「を」格	田中さんは新聞をよみます。Janob Tanaka gazetani o‘qiydi.
Yo‘naltirish kelishigi	「へ」格	田中さんは東京へ行きました。Janob Tanaka Tokyoga bordi.
Birgalik kelishigi	「で」格	バスで通勤しています。Avtobusda ishga qatnayman.
Qo‘shma kelishik	「と」格	机の上にかさとかぎがあります。Stol ustida soyabon va kalit bor.
Boshlang‘ich kelishigi	「から」格	財布からカードを出しました。Hamyonimdan pul oldim.
0 Boshlang‘ich-qiyosiy kelishik	「より」格	お母さんはお父さんより厳しい。Oyim dadamga qaraganda qattiqqo‘l.
1 Chetki kelishik	「まで」格	サマルカンドまで1時間かかります。Samarqandgacha 1 soat vaqt sarflanadi.
Ikki ma‘noli	重ねた格	サマルカンドからの専門家はこの人

2	kelishik		です。Samarkandlik mutaxassis mana bu kishi bo’ladilar.
---	----------	--	--

Yuqorida keltirilgan kelishik ko’rsatkichlari ma’nolari kontekstdan anglab olish mumkin. Yapon tilini xorijiy til sifatida o’zlashtiruvchi talabalarda bu kelishik ko’rsatkichlarini o’zlashtirish davomida murakkablik tug’diradigan yana bir hodisa mavjud, bu grammatik qurilmalarning va qo’shimchalarning bir biriga yaqin ma’no anglatishidir. Masalan :

田中：病院にくる？ Tanaka : - Shifoxonaga kelasanmi?

池田：ううん、行けない。まだやることがたくさんあるから。 Ikeda: - Yo’q borolmayman . Hali ishlarim ko’p.

田中：日本へ来るの？ Tanaka: - Yaponiyaga kelasanmi?

サントス：うん、来月仕事で行く予定。 Santosu: - Ha kelasi oy ish bilan borishim rejalashtirilgan.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kontekstda keltirilgan 「に」 va 「へ」 kelishik ko’rsatkichlarining vazifalari yo’nalishni bildiruvchi fe’ldan oldin ishlatilayotganligi bois bir xil ma’no kasb etmoqda. Umuman olganda esa 「に」 kelishik ko’rsatkichi yuqoridagi kontekstda yetib boriladigan punkt (joy)ga tegishli ma’noni anglatga , (shifoxonaga), 「へ」 esa undan kengroq ma’noda ya’ni , yetib boriladigan punkt va marshrutlargacha bo’lgan ma’lumotni o’z ichiga oladi. 『日本語文法大辞典』 (Nihongo bunpou daijiten) ma’lumotlariga ko’ra 「へ」 kelishik ko’rsatkichi qadimdan joy ma’nolarini beruvchi ot so’z turkumiga tegishli 「辺・へん」 so’z idan kelib chiqqan deyiladi. 「辺・へん」 so’zi esa tomon degan ma’noni bildirgan. Nara davri va Heian davri oralig’ida bu so’z kelishik ko’rsatkichiga aylangan. Mashhur “Manyoushuu” asaridagi quyidagi parchaning o’zida 「に」 va 「へ」 kelishik ko’rsatkichlarining ma’nolari nyuansini ko’rishimiz mumkin<sup>2</sup>.

しらぎ いえ いきしまぎょう  
「新羅へか家にか帰る壱岐の島行かむたどきも思ひかねつも」

しらぎ いえ  
「新羅へ行くか家に帰るか、行く手がかりも思いつかない」

(Sillaga(koreys xonligi) borsammi yoki uyga qaytsammi, qayerga borishni bilmay boshim qotgan)

<sup>2</sup> コンサイス和露漢字辞典【第3版】、東京、Sanseido, 2005–2007. Электрон-ный вариант

“Sillaga(koreys xonligi) borsammi”(Silla xonligiga qadar bo‘lgan yo‘l hamda uning atrofidagi shaharlar va joylar ko‘zda tutilganligi uchun 「へ」 kelishik ko‘rsatkichidan foydalanilgan), “uyga qaytsammi” (uy aniq manzil bo‘lganligi uchun) “-ga” ma’nosini beruvchi kelishik ko‘rsatkichlarining nyuanlarini ma’noda gavdalanganligini anglashimiz mumkin.

Yana bir misol:

あした<sup>きょうと</sup>京都へ行く。Ertaga Kyotoga boraman.(Kyoto tomonga boraman degan ma’noda)

あした<sup>きょうと</sup>京都に行く。Ertaga Kyotoga boraman.(Boshqa joyga emas aynan Kyotoga degan ma’noda)

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Yapon tilida qo‘shimchalar ma’no jihatidan juda o‘xshaganligi va biri-ikkinchisining o‘rniga qo‘llanila olishi mumkin bo‘lgani bois, o‘zlashtirishda qator savollarga duch kelinadi. Shuning uchun yapon tilidagi qo‘shimchalarning o‘zbek tilidagi mos muqobilini variantlarda tarjima qilib, istisno holatlari so‘zga birikib ma’no o‘zgarib kelishi kabi jihatlar keng yoritilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

### REFERENCES

1. コンサイス和露漢字辞典【第3版】、東京、Sanseido, 2005–2007. Электрон-ный вариант.
2. 国際交流基金ブダペスト日本文化センター日本語教育アドバイザー林敏夫「ことば・文化・歴史」⑧わび・さび②. Хаяси Тосио. Котоба-Бунка-Рэкиси-8, Ваби-Саби-2 (Слово–культура–история-8,Ваби-Саби-2). Будапешт. 2020.
3. MINNA NO NIHONGO ChuukyuuII. スリーエーネットワーク2020年東京
4. クルボノヴァ・グルノザ  
「『源氏物語』の女子教育—光源氏による明石の姫君の「后がね」教育—」  
『文化継承学論集』第10号（明治大学大学院文学研究科）、pp.13-25、2014年3月。
5. <https://vja.ruslang.ru/ru/archive/2016-3/7-21>
6. [https://pedlib.ru/Books/4/0437/4\\_0437-41.shtml](https://pedlib.ru/Books/4/0437/4_0437-41.shtml)
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/k-ponyatiyu-ustoychivoy-grammaticheskoy-konstruktsii-kak-klassa-grammaticheskikh-edinits>